

SURXON VOHASI IX-XII ASRLARDA IJTIMOYIY-IQTISODIY MADANIY HOLAT VA MAHALLIY AHOLINING TURMUSH TARZIGA TA'SIRI

Saydullaev Farrux Umedullo o'g'li

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasida stajyor tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada IX –XII asrlarda vohadagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot va o'sha vaqtdagi etnik aholining diniy qarashlari va turmush tarzi va bunda Termiziy ulamolarning tasiri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Voha, Etnik, Termiz, Til, Madaniyat, Urf odat, O'rta osiyo, Islom, Arablar, Renesans.*

ABSTRACT

In the article, examines the political, social, and economic life of the oasis in the 9th-12th centuries, the religious views and lifestyle of the ethnic population at that time, and the influence of Termizi scholars.

Key words: *Oasis, Ethnicity, Termiz, Language, Culture, Tradition, Central Asia, Islam, Arabs, Renaissance.*

KIRISH

X asrda Surxon vohasida savdo aloqalari rivojlangan bo'lib, Termizda sovun va muattar (xushbo'y tosh)ni ko'plab ishlab chiqarish va uni chetga sotish keng yo'lga qo'yilgan. Termiz hunarmandlari sharq bozorlarida baliq yelimi, kir yuvish ishqori, qo'lda to'qilgan matolari bilan shuhrat topganlar. Hatto vizantiyalik savdogarlar Termizdan paxta olib ketishgan.¹ O'z navbatida, Termiz bozorida boshqa shaharlardan keltirilgan mahsulotlar bilan ham savdo qilingan. Shuni ta'kidlash kerakki, IX-X asrlar Termiz ma'muriy-savdo, hunarmandchilik markaziga aylandi, daryo porti qurildi. Shaharda temirchilik, misgarlik va shishadamgarlik, ayniqsa, kulolchilik keng rivojlangan. Saljuqiylar davrida ko'plab gilamlar tayyorlanib, Misr, Hindiston, Xitoyga olib borib sotilgan. O'rta Osiyoda qo'lda jundan patli va patsiz gilamlar to'qish Surxon vohasida rivojlangan.

Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, karvonsaroylar, shaharlarda masjid va madrasalar qurdirdi. Karvon yo'llari qaroqchilardan tozalandi, yo'lovchilarning xavfsizligi ta'minlandi. Sharq bilan g'arbni bog'lovchi karvon yo'lini qayta tikladi.² Ibn Arabshohning ta'kidlashicha, ipak yo'li orqali Samarqandga

¹ Termiz. Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar (mualliflar jamoasi) –Toshkent: Sharq, 2001. – B. 15.

² Abu Ishoq Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim Sa'labiy Nishopuriy. Al-Kashf va-l-bayon. – Bayrut: "Doru ihyo at-turo al-arabiy", 1422/2002. X. Birinchi nashr.

turli mamlakatlardan, xususan Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, yashin toshi, mushk, boshqa va mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Hindistondan sifatli choylar, nafis oq rangli matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar, Erondan marvarid va durlar, Rossiya va Tataristondan har xil mo'ynalar, teri va mum keltirilgan. Farangiston gazlamalari, movutlari va Cherkas pichoqlari mashhur edi. O'z navbatida, O'rta Osiyo shaharlaridan chet mamlakatlarga arzon narxli ip matolar, bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta, kalava iplar, kulolchilik, misgarlik buyumlari, pichoq kabi mahsulotlar chiqarilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki sharq va yaqin Sharq, Ovrova mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Arab sayyohi Ibn Battutaning "Ibn Battuta sayohati" nomli asari yozma manbalar orasida alohida o'rin tutadi.³

U O'rta Osiyo xalqlari hayoti, turmush tarzi, madaniyati, savdo aloqalari, allomayu, avliyolari, ular nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar, vaqf mulklari, karvonsaroylar va boshqa qiziqarli, qimmatli ma'lumotlarni keltirgan. Ibn Battuta o'zining "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati" kitobida Eski Termiz Jayxun sohilida bo'lganini, mug'ul vayron etganidan so'ng, yangi shahar daryodan 2 mil masofada bunyod etilgani, Termizda uni noib Aloul Mulk Xudovandzodaning topshirig'i bilan munosib kutib olishgani, u yerda shahar qozikaloni Qavomiddin bilan uchrashgani, qozi bilan birga, Hindiston sayohatida birga bo'lganini, Termiz va Hindiston aloqalari, Jayxundan Xurosonga, Balxga o'tganini, u yerdagi masjid-madrasalarining peshtoqida lojuvard toshlar yaraqlab turishi, u toshlar Badaxshondan keltirilganini aytib o'tgan. Xalq hunarmandchilik san'ati moddiy va ma'naviy madaniyatni o'zida doim mujassamlashtirib kelgan.⁴

IX-XII asrlarda islom va boshqa ta'limotlar ta'sirida tasavvuf shakllandi va musulmon Sharqiga tarqaldi. Arab tili musulmon Sharqida, xususan Markaziy Osiyoda fors va turkiy tillarni chetlab o'tib, umumiy din va ilm-fan tiliga aylanib, turli xalqlar madaniyatining o'zaro aloqasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Arablar Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi boy vodiyni Movarounnahr deb atay boshladilar.⁵

Bu yerda savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bir qatorda madaniy aloqalar, bilim o'choqlari rivoj topdi. Bunday iqtisodiy-madaniy markazlar ulkan musulmon

³ Dala yozuvlari. Saudiya Arabistoni. Toif shahri, At-Toyyibat xalqaro muzey fondi. 2022-yil

⁴ Jaloliddin Mirzo. Termiz Tarixi.-Toshkent, Sharq, 2001. B-197.

⁵ Daminova Z. XIX asr oxiri - XX asrda Termiz shahri tarixi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent. 2004.

Sharqining turli o'lkalarini, G'arb va Sharq, Shimol va Janub mamlakatlarini bog'lab turuvchi qadimgi "Ipak yo'li" an'alarini davom ettirgan holda, aloqa o'choqlari sifatida mashhur bo'ldi. Movarounnahr feodal davlatlari boshqa musulmon o'lkalar bilan yaqindan aloqa o'rnatdilar, yerli olimlar o'zga mamlakatlarga borib ilm olish, hamkasblari bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yerli feodal davlatlarining o'zaro urushlariga qaramay me'morchilik, qurilish ishlari, hunarmandchilik, obodonchilik, madaniy aloqalar ham tez sur'atlar bilan avj oldi. Madaniyatning turli sohalaridagi bunday yuksalish avvalambor arab mustamlakachiligidan qutulish, yerli mustaqil feodal davlatlarning vujudga kelishi, boy madaniy an'analarning tiklanishining natijasi edi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoning juda katta mintakadagi musulmon Sharqi davlatlari bilan din va til asosida madaniy aloqalarining kuchayishi ham bu madaniy yuksalishda muhim sabab bo'lib xizmat qildi.

Arab tili Markaziy Osiyoni islom dini, arab dunyosi, bu tilda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar, qilingan tarjimalar yordamida qadimgi islom ilmiy-madaniy boyliklaridan bahramand bo'lishga olib kelgan bo'lsa, fors tili qadimgi va o'rta asrdagi Eron madaniyatini, she'riyatini chuqur o'rganish, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini berdi.⁶ IX—XII asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta'limotlari va oqimlari ham jamiyat ma'naviy hayotining rivoji uchun xizmat etib, uning o'ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, G'arb adabiyotlarida Ovro'po mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV—XVII asrlarni Renessans — Uyg'onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko'pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo'lganligidan ko'z yumadilar. Holbuki, IX—XII asrlarda Markaziy Osiyoda Ovro'podan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. U Ovro'podagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya'ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, madaniyat tarixida so'nmas iz qoddirdi va Ovro'po Renessansining vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Shuning uchun biz IX—XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, aniqrog'i ilk Uyg'onish davri deb atashga ham to'la asosimiz bor. Bu ilk Uyg'onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Ovro'po mamlakatlaridan farqli o'laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Bu davrda Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillardagi dastlabki she'riy asarlar vujudga keldi.

Xulosa qilib aytganda, Vohada ijtimoiy-iqtisodiy madaniy xolat mahalliy aholining turmush tarziga ta'siri. Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga egadir.

⁶ 16.F-19-fond- Surxondaryo viloyat davlat arxivi.

Eramizdan avvalgi 1 minginchi yillarda bu o'lkada, yunon manbalarida ko'rsatilishicha, skif (sak)lar deb nomlangan xalqlar istiqomat qilgan.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri desa haqli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Termiz. Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar (mualliflar jamoasi) –Toshkent: Sharq, 2001.
2. Abu Ishoq Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim Sa'labiy Nishopuriy. Al-Kashf va-l-bayon. – Bayrut: "Doru ihyo at-turos al-arabiy", 1422/2002. X. Birinchi nashr.
3. Dala yozuvlari. Saudiya Arabistoni. Toif shahri, At-Toyyibat xalqaro muzey fondi. 2022-yil
4. Jaloliddin Mirzo. Termiz Tarixi.-Toshkent, Sharq, 2001. B-197.
5. Daminova Z. XIX asr oxiri - XX asrda Termiz shahri tarixi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiyasi. Toshkent. 2004.
6. 16.F-19-fond- Surxondaryo viloyat davlat arxivi.